

Magistraturaga qabul bo'yicha kasbiy(ijodiy) imtihonlar boshlandi



Bugun, 13-avgustdan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida magistraturaga qabul bo'yicha kasbiy(ijodiy) imtihonlar boshlandi.



Imtihonlar karantin qoidalariga qat'iy rioya qilingani holda

tashkil etilgan. Institut hovlisiga kirishda barcha fuqarolarning tana harorati tekshirilib, qo'llariga antiseptik vositalari sepilyapti, tibbiy niqob taqish, o'zaro masofa saqlashga alohida e'tibor qaratilgan.



Ana shunday jarayonlar 3 bosqichda amalga oshirilmoqda. Kasbiy(ijodiy) imtihonlarni ochiqlik, oshkoralik, adolat mezonlari asosida o'tishi uchun zarur choralar ko'rilgan.



Imtihon o'tkaziladigan xonalar maxsus kameralar bilan jihozlangan bo'lib, barcha jarayonlar institutning rasmiy veb-sayti orqali to'g'ridan-to'g'ri rangi va ovozli tarzda translyatsiya qilinmoqda.



Istagan kishi ijtimoiy tarmoqlar orqali imtihonlarni jonli tarzda kuzatishi mumkin. Kasbiy(ijodiy) imtihonlar 14-avgusga qadar davom etadi.

Matbuot kotibi